

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

O'ZBEK XONLIKARININIG TASHKIL TOPISHDAGI TARIXIY SHAROIT VA
UNING AHAMIYATI

Akmaljonov Akbarjon Akmaljon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti Tarix yo'nalishi 2 bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek xonliklarining tashkil topishi, xonliklarning chegaralari, aholi turumush tarzi, boshqaruv tizimida olib borilgan islohalatlar, Xonliklar hududida ro'y beragan iqtisodiy va ijtimoiy hayot va xonliklarning umumiyligi tashkil topishida mavjud bo'lган sharoyitlar haqida atroflicha fikr mulohazalar yuritiladi va bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Xonliklar, iqtisodiy, ijtimoiy hayot, aholi, Buxoro amirligi, Xiva, Qo'qon, Movarounnahr

Abstract: In this article, the organization of the Uzbek khanates, the boundaries of the khanates, the way of life of the population, the reforms carried out in the management system, the economic and social life that took place in the territory of the khanates, and the conditions of the general organization of the khanates are discussed. is stated.

Key words: Khans, economic, social life, population, Bukhara emir, Khiva, Kokan, Movarounnahr

Аннотация: В данной статье приводятся мнения и сведения об образовании Хивинского ханства, границах ханства, образе жизни населения, реформах, проводимых в системе управления, и политической ситуации в ханстве, а также военные и оборонительные силы, а также введенные позиции в ханстве.

Ключевые слова: ханы, экономическая, общественная жизнь, население, бухарский эмир, Хива, Кокан, Моваруннахр.

KIRISH

Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklaridan iborat 3 ta yangi o'zbek davlati tashkil topdi. Bu davlatlar etnik jihatdan bir-biriga ancha yaqin edilar. O'zbek urug' va qabilalari orasida ancha katta mavqeyiga va kuchga ega bo'lgan qo'ng'irotlar sulolasi Xivada, mang'itlar sulolasi Buxoroda va ming urug'i boshliqlari Qo'qon xonligida o'zining mustaqil hokimiyatini o'rnatdilar. Bu o'zbek davlat birlashmalari bir-birlariga qarshi mol-dunyo, yer va davlat talashib tinimsiz va muttasil bir birlari bilan kurash olib bordilar, bir birlarining tinkamadorini quritdilar.buning natijasida ming-minglab begunoh aholi qirilib ketdi. Shu boisdan bu davlatlar faoliyat yuritgan butun Turkiston o'lkasi hududida ishlab chiqarish munosabatlari rivojlanishi jahon xalqlari taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga nisbatan ancha orqada qolib ketdi. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari turli urug', qabila va xalqlarning birlashgan ittifoqini tashkil etar edilar, ular orasida siyosiy jihatdan birlashish yo'q edi. Natijada bu davlatlarning hududlarida yashagan xalqlar o'rtasida yagona xalq, yagona millat, yagona Vatan histuyg'usi taraqqiy etmadi, bu davlat birlashmalari bunday oliyjanob histuyg'ularning shakllanishi va kamol topishiga yetarli shart sharoit yaratmadilar aksincha to'sqinlik qiladilar. Bu esa XVI–XIX asrlarda Movarounnahr hududida iqtisodiy va siyosiy hayot turg'unlighining eng asosiy sabablaridan biridir.Yana bir asosiy sababni ko'rsatib o'tadigan bo'lsak bu qishloq xo'jaligida yerga xususiy mulkchilik qilishdan iborat ishlab chiqarish munosabatlarining hali ham saqlanib qolginganligidir. Aholi asosan yerga

Ilmiy elektron jurnali

ishlov berish bilan shug'ullangan. Yer barcha boyliklarning manbaidir. Unga bo'lgan mulkchilik shakllari ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantiruvchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yevropa va dunyodagi boshqa mamlakatlarda mavjud bo'lgan yerga egalik qilishning xususiy mulkchilik shakli qishloq xo'jaligi taraqqiyoti va dastlabki kapital jamg'arish jarayonining qudratli vositasi bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz.

MATERIALLAR VA USULLAR

Osiyoda, shu jumladan, Turkiston o'lkasi hududidagi davlat birlashmalarida esa mult shakllari va dehqonchilik shakllari asrlar davomida rivojlanib kelganligi sababli o'zgarmadi, yerga xususiy mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarish munosabatlari o'zgarmadi va shu holicha qolib ketaverdi. Yerning asosiy egasi oldingidek hukmdor bo'lib qolaverdi. U yerni foydalanish uchun mahalliy yer egalari va masjidlarga ulashardi. Yer o'zining asosiy xo'jayini, ya'ni egasiga qishloq mehnatchilariga berilmadi. "Yerga xususiy egalikning yo'qligi, dehqonchilikdagi qo'shimcha qiymat va jamg'arma shakllari hisoblangan absolyut va differentsial renta bo'lmasligi uchun sharoit yaratgan edi. Bu hol zodagonlarni esa o'z navbatida yerdan foydalanish, dehqonchilikni yaxshilash, yer hosildorligini oshirish maqsadida mablag' sarflashdan manfaatdor bo'lmasligiga asosiy sabab bo'ldi. Natijada ishlab chiqarish kuchlari rivojlanmadи yoki kamrivojlandi.

Barcha yerlar sharoitga ko'ra davlatga, xon, amirga qarashli bo'lib, ularidan foydalanish uchun turli shartlar asosida aholining turli qatlamlariga bo'lib berilar edi belgilab qo'yilgan tartib qoidalarga asosan mazkur yerlar quyidagi uchta qatlamlar o'rtasida taqsimlangan:

- Davlat yerlari (yana amlok yerlari deb ham atalgan);
- Egalik yerlari (ya'ni multk yerlari).

Vaqf yerlari, ya'ni masjid, madrasalarga, ruhoniyatga tegishli bo'lgan yerlar. Davlat yerlari hech qachon sotilmagan hamda ayriboshlash ham mumkin bo'lman. Ulardan umumiy tarzda o'lpon (xiroj) solig'I to'langan. Xususiy yer mulklari turlicha bo'lgan: mulki hur, mulki ushriy va mulki xiroj deb atalgan. Bu yerdardan olinadigan soliqlar turlicha bo'lib, soliqlarning miqdori ba'zi hollarda olinadigan

- daromadning 50 % ini tashkil etardi.

O'rta Osiyo hududida lalmi va sug'orma dehqonchilik qilish uchun mo'ljallangan yerlar jami 2 million gettarni tashkil qilgan aholi jonboshiga yarim gettardan to'g'ri kelgan. Albatta imoratlar egallagan joylar, texnika ekinlari (paxta, tut daraxtlari va boshqa) egallagan maydonlar ham shu hisobga kirardi. Bundan tashqari bu davrda ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining ancha pastligi, dehqonchilik madaniyatining rivojlanmaganligi va aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sib borayotganligi hisobga olinsa, mavjud bo'lgan sug'oriladigan yer miqdori aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun yetarli bo'lmanligini ko'rishimiz mumkin. Biz bu o'rinda to'ralar, boylar va amaldorlarning oddiy mehnatkash xalqqa nisbatan jabr – zulmlari, zo'ravonliklari, adolatsizliklari haqida gapirib o'tirmaymiz. Shu bois o'lkada yashovchi oddiy aholi albatta og'ir va nochor hayot kechirishga mahkum edi. O'rta Osiyo xalqlari qadim zamonlardan dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelganliklari ma'lum. Bu borada ibrat olsa arzigulik tajribaga ham ega bo'lganlar. Buni yevropalik va rus olimlari ham yuqori

Ilmiy elektron jurnali

darajada baholaganlar. Jumladan, A.Middendorf: «O'rta Osiyoning mehnatsevar ahli, biz uchun ishga mislsiz talabchanlik, muhabbat, to'liq mayunnash va harakat qilish matonati, katta jonli zakovat namunasi xizmatini o'taydi», deb yozadi. Ota-onas, avlod-ajdodlarimiz o'zlarining mehnatsevarligi, matonati va metin iroda sohibi ekanliklari tufayli g'oyatda og'ir sharoitlarda, ming yillar davomida ham deyarli o'zgarmagan oddiy mehnat qurollari (omoch-bo'yinturuq, ketmon, belkurak, o'roq va h.k.) dan foydalanganlar. Hamma ish deyarlik qo'lida bajarilishi mehnatkash xalqning gardaniga og'ir yuk bo'lib tushardi. Xususan, sug'orish ishlariда xalqimizning boy o'tmishi va tarixiy tajribalari qo'l keldi Suv olg'ich to'g'onlar va katta kanallar qurishda qulay joylarni tanlashda bu ayniqsa katta ahamiyat ega bo'ldi. Sug'orish dehqonchiligidagi chig'iriqlardam keng ko'lama foydalanilgan bo'lib, ular daryolar, kanallar va quduqlarda o'rnatilardi. Chig'iriqlarni tortishda ishchi hayvonlar: tuya, ot, ho'kiz, eshaklardan keng foydalanganlar. Ba'zan bu ishlarni hatto odamlarning o'zi ham bajargan.

NATIJALAR

XVI–XIX asrlarda juda katta ulkan kanallar va ariqlar qurish, ularni tozalash, suvni undan foydalanuvchilarga taqsimlash borasida talaygina ishlar amalga oshirildi. Bu ulkan kanal va ariqlar o'nlab, yuzlab kilometr uzunlikdagi masofalarga cho'zilardi. Jumladan, Chirchiq daryosining suvi 45 ta kanalni suv bilan ta'minlar edi. Shundan eng uzuni Zog'ariq 70 km, Bo'zsuv 60 kmga cho'zilgandi. Farg'ona vodiysidagi katta ariqlar 200 kilometr, Samarqand viloyatidagi barcha ariqlar 400 kilometrdan uzoq masofaga borardi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida keng ko'lama sug'orish ishlari olib boriladi. XVIII asr va XIX asr boshlarida bu yerda ulkan kanallar bunyod etildi. Bular: Shahrixonsoy, Andijonsoy va Yangiariq (har birining uzunligi 100 km dan bo'lganligini bilishimiz mumkin) kanallari qurildi. Usmonli turklarning O'rta yer dengiz portlarini yopib qo'yanligi (XV asrdan) va «Buyuk ipak yo'li» ning tanazzulga uchraanligi tufayli sodir bo'ldi. O'rta Osiyo hududi aholisi o'z ishlab chiqarish qobig'iga o'zi o'ralib qoldi, jahon fani va texnologiyasi yutuqlaridan ancha orqada qolib ketgan edi shuning uchun ham bu kabi yangiliklardan bahramand bo'la olmadi. Mahalliy aholi tor va oddiy kustarchilikdan iborat hunarmandchilik va kosib-chilik bilan o'zining talab va ehtiyojlarini qondirishdan nariga o'ta olmas edilar: bo'yoqchilik, to'qimachilik ko'nchilik, sham,sovun, yog' tayyorlash, tegirmonchilik kabi sohalargina birmuncha rivojlangan edi. Hunarmandlar ozgina, arzimagan daromadga qanoat qilib yashar edilar. Ularda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan yollanma ishchilar ham, qo'shimcha qiymat ham mavjud emas edi. XVIII–XIX asrlarda Turkiston hududida jun, paxta va ipakdan to'qilgan matolar keng ishlab chiqarilar edi. Ayni zamonda mis o'ymakorligi bilan bog'liq hunarmandchilik, kulol va sopol buyumlar, musiqa asboblari, bolalar o'yinchoqlari, bezaklar va shu kabi buyumlar ishlab chiqarishiga ham katta e'tibor beriladi. Bularning barchasi mehnatkash xalq tomonidan amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki jamiyatning har bir a'zosi dast avval o'zligini anglash kerak. Jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri hisoblangan vatanimiz ko'p asrlik davlatchilik tarixiga ega. Arxeologik manbalar, "Avesto" kabi mahalliy yozma manbalar, qolaversa, Yunon, Rim, Xitoy tarixchilarining qadimiy asarlarida davlatchilik tarixiga oid ma'lumotlar yetarli. Anashu yozib qoldirilgan ilmiy risolalar asosida O'zbek xonliklarining tashkil topishi uning madaniy hayotidagi ro'y bergan voqeliklar ketmakeetligini o'qib o'rganishimiz mumkin. Mustaqillik yillarda O'zbek xonliklari tarixini o'rganish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Ilmiy jurnallarda va ilmiy-nazariy

konferensiyalarda xonlik tarixiga oid yuzlab ilmiy maqolalar e'lon qilindi.Buning natijasida esa O'zbek xonliklarini o'rghanish uchun katta imkoniyatlar eshigi ochildi deb aytsakham sira mubolag'a bo'lmaydi.O'zbek xonliklari tarixini o'qir ekanmiz o'tmisimizda yaratilgan barcha moddiy va madaniy boyliklarni bilishimiz kelajakni qurishda tarixdan saboq olib fikr va mulohaza yuritishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shamsutdinov R,Karimov Sh. Vatan tarixi.ikkinchi kitob. T: Sharq,2020 yil
2. . O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-jildlik. Toshkent.
3. Vatan tarixi. R.Shamsutdinov. Sharq 2016. Toshkent.
4. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. I.Karimov. Sharq 1998. Toshkent.
5. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston 2016. Toshkent.